

2- Mavzu: Bebahoh qadriyatlar

Darsning maqsadi:

- Kaykovusning “Mehmon haqi” rivoyati bilan tanishtirish;
- qadriyatlarimiz haqida ma’lumot berish;
- voqealar ketma-ketligini aniqlash ko’nikmalarini shakllantirish.

Tayanch so’zlar: Amir, ayibdor, so’nggi istak, suv, mehmon haqi

Didaktik materiallar: mavzuga mos rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (*3daqiqa*)

Darsni tashkil qilish.

Faollashtiruvchi mashq: *Berilgan harflarning o’rnini topib, so’z hosil qiling.*

MOMEHN

II. O’tilganlarni takrorlash. (*7 daqiqa*)

She’rni ifodali o’qitiladi. Oila a’zolaringiz haqida qisqacha ma’lumot so’raladi.

III. Darsning asosiy qismi. (*28 daqiqa*)

Amaliy topshiriq. Yashiringan so’zni toping.

Meh+nat+mon-nat ha+lim+qi-lim

Amaliy topshiriq muhokamasi

1. Sizda qanday so’z hosil bo’ldi?
2. Nima uchun bu so’z to’g’ri keladi deb o’ylaysiz?
3. So’zni topishda nimalarga e’tibor berdingiz?

Mavzuni tushuntirish: O’quvchilarga “qadriyat” so’zi haqida ma’lumot beriladi.

“Qadriyat” juda keng ma’noli tushuncha bo’lib, inson va insoniyat uchun qadrli narsalarni anglatadi. Qadriyat ming yillar davomida insonlar tomonidan ardoqlanib, ajdoddlardan avlodlarga o’tib, sayqallanib kelinayotgan moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana va urf-odatlar, fazilatlardir. Ota-bobolarimiz ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, tinchlik, ozodlik, mehr-oqibat, saxovat, mehmondo’stlik kabi qadriyatlarni, ayniqsa, e’zozlaganlar.

Matn bilan ishslash.

“Mehmon haqi” rivoyatining muallifi haqida ma'lumot beriladi.

Kaykovus — fors yozuvchisi . U “Qobusnama” nomli yirik tarbiyaviy ahamiyatga ega asarining muallifidir.

Rivoyat navbatma-navbat o'qitiladi va matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Qadriyat nima?
2. Qadriyatlarimizga nimalar kiradi?
3. O'qigan rivoyatingiz nima haqida deb o'ylaysiz?
4. Nima uchun Amir jinoyatchini qo'yib yubordi?
5. Ayting-chi, “mehmon haqi” deganda nimani tishundingiz? Fikringizni izohlang.
6. Uyga mehmon kelganda nima qilasiz? Qanday so'zlar bilan kutib olasiz?

O'quvchilarning javoblari tinglanadi. Lug'at ishi o'tkaziladi.

Hukm – bir ish yuzasidan chiqarilgan qaror.

Qultum – bir yutushli suyuqlik miqdori.

“Ma'nodoshini top” mashqi.

“Mehmon” so'ziga ma'nodosh so'z topiladi.

Mehmon - qo'noq

Rivoyat mazmunini ifodalovchi voqealar ketma-ketligini tuziladi.

Mashq daftari bilan ishslash.

Daftardagi topshiriq bajariladi.

“So'zni top” mashqi

Yashiringan so'zlarni topsangiz, beba ho qadriyatimizni bilib olasiz.

mehr, oqibat, mehmondo'stlik **MEHrMONoDO'STqiLIKbat**

“Ha, yo‘q” mashqi.

Fikr mazmuni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.

T/r	Fikr mazmuni	Ha	Yo‘q
1	Mehmonni xursandchilik bilan kutib oling.	+	
2	Oldiga noz-ne’matlar qo‘yib, yeb-ichib o‘tirishga undang.	+	
3	Mehmonga jahlingizni ko‘rsating.		+
4	Dasturxonga birinchi non qo‘yilishi shart emas.		+

Mehmondo‘stlik haqida maqolni o‘qing va yozing.

Mehmon joyi ko‘z ustida.

“Yashiringan harflar” mashqi.

Kichik guruhlarga yarim harfi ko‘rinmaydigan so‘zlardan iborat maqollar yozilgan tarqatmalar berish tavsiya etiladi. Maqollarni o‘qishadi va mazmunini izohlashadi.

**Mehmon izzatda,
Mezbon vizmatda.**

**Mehmon kelar eshikdan,
Rizqi kelar teshikdan.**

Mehmon keigan uy — parakali.

Mehmon kelgan uvning chirog‘i ravshan.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (*3 daqiqa*)

- Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz?
- “Qadriyat” nima ekan?
- Darsdan qanday xulosa chiqardingiz?

V. Uyga vazifa berish. (*2 daqiqa*)

Rivoyatni o'qing va mazmunini so'zlab bering.Mehmondo'stlik haqida maqollardan topib yod oling.